

Andijon viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

2025-yil yanvar-iyul


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida o'zgarishi
- III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025-yil yanvar-iyul oylarining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra (norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **27 703,4** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,3** % ni tashkil etib, uning hajmi esa **5 621,7** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

Ma'lumot uchun: 2024-yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar hajmi **22 081,8** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **114,1** % ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



¹ 2024-yil yanvar-iyul oylari hajmi va 2025-yil yanvar-iyul oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida o'zgarishi

2025-yilning yanvar-iyul oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **26,0 %**, ya'ni **7 197,5** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan ushbu hududning o'sish sur'ati **118,5 %** ga yetgan.

Shu bilan birga, eng yuqori ulush Asaka (**4,5 %**), Andijon (**3,8 %**) va Shahrixon (**3,5 %**) tumanlarida kuzatilmoqda.

Ulug'nor tumanida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **283,7** mlrd so'mni yoki jami xizmatlar hajmining 1,0 % ini tashkil etdi. O'sishi 15,6 % ga yetdi.

Xizmatlar sohasining hududlar kesimida asosiy ko'rsatkichlari *2025-yil yanvar-iyul*

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha jami	27 703,4	100,0	114,3
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	7 197,5	26,0	118,5
Xonobod sh.	444,6	1,6	117,0
Oltinko'l	821,7	3,0	116,0
Andijon	1 060,8	3,8	116,3
Baliqchi	905,4	3,3	115,0
Bo'ston	314,8	1,1	116,8
Buloqboshi	567,9	2,0	115,3
Jalaquduq	843,2	3,0	117,9
Izboskan	895,8	3,2	117,5
Ulug'nor	283,7	1,0	115,6
Qo'rg'ontepa	884,6	3,2	116,1
Asaka	1 254,7	4,5	115,6
Marhamat	786,8	2,8	115,1
Shahrixon	970,8	3,5	116,5
Paxtaobod	681,6	2,5	116,2
Xo'jaobod	813,0	2,9	115,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

2025-yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7 973,6** ming so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davri (**6 476,7** ming so'm)ga nisbatan **1 496,9** ming so'mga yoki **12,2 %** ga o'sishi qayd etildi.

Hududlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ko'rsatkichi Andijon shahriga to'g'ri kelib, **14 540,3** ming so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan **15,8 %** ga yoki **2 973,0** ming so'mga o'sishi kuzatildi.



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Shahrixon tumanida (**2 919,7** ming so'm) qayd etilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,2 %** ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari (2025-yil yanvar-iyul)**

	Hajmi, mlrd so'mda	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha jami	7 973,6	112,2
shahar va tumanlar:		
Andijon sh.	14 540,3	115,8
Xonobod sh.	9 520,7	115,2
Oltinko'l	4 218,1	114,6
Andijon	3 606,9	113,7
Baliqchi	4 096,8	112,8
Bo'ston	3 934,4	114,2
Buloqboshi	3 628,8	113,2
Jalaquduq	4 157,9	116,0
Izboskan	3 429,7	115,3
Ulug'nor	4 405,4	114,7
Qo'rg'ontepa	3 761,1	114,2
Asaka	3 452,7	113,4
Marhamat	4 127,9	113,0
Shahrixon	2 919,7	114,2
Paxtaobod	3 193,8	114,1
Xo'jaobod	6 620,5	113,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **19 927,9** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **71,9 %** ini tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha Andijon shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi 2024-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **711,0** mlrd so'mga yoki **10,6 %** ga oshib, **4 253,8** mlrd so'mga yetdi. Bu hududda kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **59,1 %** ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, Asaka (716,1 mlrd so'm), Andijon (700,1 mlrd so'm) va Baliqchi (664,6 mlrd so'm) tumanlarida ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Xonobod shahrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 282,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 14,4 % ni

tashkil etdi.

Shuningdek, Bo'ston (178,6 mlrd so'm) va Ulug'nor (176,6 mlrd so'm) tumanlarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hajmi nisbatan past bo'lgan.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari
2025-yil yanvar-iyul

	Hajmi, mlrd. so'm	Jami hajmdagi Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha jami	19 927,9	71,9	110,9
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	4 253,8	59,1	110,6
Xonobod sh.	282,4	63,5	114,4
Oltinko'l	547,5	66,6	112,8
Andijon	700,0	66,0	113,2
Baliqchi	664,6	73,4	111,1
Bo'ston	178,6	56,7	111,9
Buloqboshi	338,6	59,6	111,8
Jalaquduq	565,2	67,0	117,8
Izboskan	598,2	66,8	118,1
Ulug'nor	176,6	62,3	111,9
Qo'rg'ontepa	560,4	63,4	111,8
Asaka	716,1	57,1	110,9
Marhamat	607,1	77,2	112,3
Shahrixon	600,9	61,9	112,6
Paxtaobod	430,6	63,2	111,9
Xo'jaobod	524,8	64,5	113,8

III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlarning **39,3** % ga (jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sishiga ta'siri **5,5** bandni tashkil etdi), transport xizmatlarining **12,1** % ga (o'sishiga ta'siri **2,0** bandni), savdo xizmatlarining **9,3** % ga (o'sishiga ta'siri **1,8** bandni), yashash va ovqatlanish xizmatlarining **7,3** % ga (o'sishiga ta'siri **2,2** bandni), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining **18,0** % ga (o'sishiga ta'siri **0,7** bandni) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. O'z navbatida, ijara xizmatlarining **23,2** % ga, ko'chmas mulk bilan bog'liq



xizmatlarining **7,0 %** ga, hamda ta'lim sohasidagi xizmatlarining **3,7 %** ga o'sishi jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining **0,8** foiz bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-iyul)

	Hajmi, mlrd so'mda		O'sish sur'ati, % da
	2024-y.	2025-y.	
Xizmatlar – jami	22 081,8	27 703,4	114,3
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	774,4	1 006,5	118,0
moliyaviy xizmatlar	3 232,3	4 602,2	139,3
transport xizmatlari	3 565,4	4 539,3	112,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>3 365,7</i>	<i>4 269,8</i>	<i>111,1</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	6 006,9	7 271,0	107,3
savdo xizmatlari	4 535,4	5 246,6	109,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	389,6	505,8	107,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	801,8	988,7	103,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	394,8	499,9	118,5
ijara xizmatlari	319,6	429,1	123,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	459,5	556,0	111,7
shaxsiy xizmatlar	799,5	1 011,1	109,5
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	136,6	145,8	97,9
boshqa xizmatlar	666,0	901,5	118,9

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025-yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **26,2 %**, transport xizmatlari **16,4 %**, moliyaviy xizmatlar **16,6 %**, savdo xizmatlari **18,9 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari va ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,6 %** ulushni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2024-yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **27,2 %**, transport xizmatlari **16,1 %**, moliyaviy xizmatlar **14,6 %**, savdo xizmatlari **20,5 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,5 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,6 %** ulushni tashkil etgan.


2024-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **1 264,1** mlrd so'mga oshib, **7 271,0** mlrd so'mni tashkil etdi. Yashash va ovqatlanish xizmatlarining o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, ushbu xizmatlarning ulushi **99,0 %** darajasida qayd etildi.

2025-yilning yanvar-iyul oylarida transport xizmatlari hajmi **4 539,3** mlrd so'mga yetdi, o'sish sur'ati esa 2024-yilning mos davriga nisbatan **112,1** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmidagi ulushi **16,4** % darajasida qayd etildi.

Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **94,1** %. Transport xizmatlarining umumiy hajmida Yordamchi transport faoliyati **5,5** % darajasida qayd etildi.

2024-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan savdo xizmatlari hajmi **711,2** mlrd so'mga oshib, **5 246,6** mlrd so'mni tashkil etdi.


Savdo xizmatlari hajmining tarkibi



Savdo xizmatlarining umumiy hajmida chakana savdo ulushi **72,5** % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **14,0** % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiy hajmida **13,5** % ni tashkil etdi.

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **1 006,5** mlrd so'mni tashkil etdi. Telekommunikatsiya xizmatlarining aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmidagi ulushida eng katta qismini egallab, **78,9** % ni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan uning o'sish sur'ati **112,4** % ni tashkil etgan.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari turlari bo'yicha xizmatlar hajmi, mlrd so'm





2025-yilning yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **988,7** mlrd so'mni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi ustunlik qilib, **60,7** % ni tashkil etdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi (**505,8** mlrd so'm)da shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar ulushi **99,8** % ni tashkil etdi.

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **499,9** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan uning o'sish sur'ati 118,5 % ni tashkil etgan.

Ijara xizmatlarining umumiy hajmidagi eng katta ulushni yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlari (**78,9** %) egallaydi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

Oylik xizmatlar hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlari (ro'yxat) bo'yicha statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmat ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.



Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlar\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar \(tovarlar, ishlar, xizmatlar\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)



O'zbekiston Respublikasi
Milliy statistika qo'mitasi
Andijon viloyati statistika
boshqarmasi

E'lon qilish sanasi:
20.08.2025- y.

PRESS-RELIZ
Andijon viloyatida
Xizmatlar sohasining
asosiy ko'rsatkichlari

Chiqarish uchun javobgar:
Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi

Manzil: 170100, Andijon sh., Milliy
tiklanish ko'chasi, 36-“A” uy,
Pochta: info@andstat.uz
Tel.: 74-224-80-00

